



TURLI JUFTLASHDAN OLINGAN AVLODLARDA RANG TEKISLIGINING NAMOYON BO'LISHI

Nomozov Husan

tayanch doktorant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20770671>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli juftlash variantidan olingan sur rangli qorako'l qo'zilarida rang tekisligining namoyon bo'lishini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sur qorako'l qo'ylari, avlodlar, rang tekisligi, rangbaranglik.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования, проведенного с целью изучения проявления однородности окраски у каракульских ягнят соболиного окраса, полученных от разных вариантов спаривания.

Ключевые слова. Овцы породы сур-каракуль, поколения, однородность окраски, вариативность окраски.

Abstract. This article presents the results of a study conducted to study the manifestation of color uniformity in sable-colored Karakul lambs obtained from different mating options.

Key words. Sur-karakul sheep, generations, uniformity of color, color variability.

Qorako'lchilikda turli rang va rangbaranglikdagi qo'ylar bilan seleksiya ishlarining olib borilishi dolzarb hisoblanadi. Ma'lumki qorako'lchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qorako'l qo'ylaridan olinadigan qimmatbaho qorako'l terilari o'zining serjiloliligi, qalam gullarning teri yuzasida bir xil tekislikda joylashishi ularning qimmatligini yanada oshiradi. Shuningdek, ushbu terilarning qimmatligini oshirishda rang tekisligi muhim ahamiyatga egaligini qayd etish lozim. Zero teri yuzasida rangning tekis tarqalishi ushbu terilarning nafaqat qimmatini belgilaydi, balki uni yanada serjilo va ipaksimon ko'rinishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan ushbu ko'rsatkichlar bilan tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi.

Qorako'l qo'ylarida rang tekisligi muhim seleksion ahamiyatga ega bo'lib, nasliy hamda terilarning qimmatligini baholashda e'tiborga olinadi. Teri sathida rang tekisligining nomutanosibligi uning sifatini pasaytiradi, shu bilan birga bu belgining avlodga o'tishida salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, rang tekisligi 3 xil a'lo, tekis va notekis kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Ma'lumki, a'lo va tekis ko'rsatkichli terilar yuqori sifatli terilar hisoblanadi.





Tadqiqot maqsadi. Turli juftlash variantidan olingan avlodlarda rang tekisligini o'rganish tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Tadqiqotlar Samarqand viloyati, Paxtachi tumani "Qarnabota" MChJ da urchitiluvchi sur rangli qorako'l qo'yalaridan olingan avlodlar bilan olib borildi. Tadqiqotlar davomida rang tekisligi, uning avlodlarga berilishi hamda gul tipi va rangbarangliklarga bog'liqligi umumqabul qilingan zootexniyaviy usullar yordamida, shuningdek "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilar baholash (bonitirovka qilish)" bo'yicha qo'llanma (Yusupov S.Yu. va boshqalar, 2021-y) asosida ko'z bilan ko'rish yordamida aniqlandi. Shuningdek, qo'zilar genotipik holatlari baholandi. Olingan ma'lumotlarga "Руководство по биометрии для зоотехников" (Плохинский. Н.А. Москва. 1969. 256 с) asosida variatsion statistika usullarida matematik ishlov berilib, o'rtacha arifmetik qiymati (X), uning xatosi (Sx) va o'zgaruvchanligi (Cv) aniqlandi.

Adabiyotlar sharhi. Qorako'lchilikda rang tekisligini o'rganishga doir tadqiqotlarda, jumladan Raximov A.R., Belenko A.A., Igamnazarov A. (1991-y) va Turganbayev R.U. (2012-y) kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, ularning namoyon bo'lish va irsiylanishi to'liq namoyon qilinmagan. Qayd etish joizki, bu ko'rsatkichning namoyon bo'lishida ko'pchilik genlarning ta'siri bilan birga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillarga oziqlantirish, iqlim, teri sathida joylashgan gullarning xilma-xilligi, teri yuzasida jun tolalari uzunligining bir xil bo'lmasligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Tadqiqot natijalari. Jun tolalarining teri yuzasida turli uzunlikda bo'lishi va natijada turli shakllardagi gullarning hosil bo'lishi rang tekisligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Shu boisdan ushbu ko'rsatkichni yuqori darajada saqlab turish seleksiyada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotlar davomida rang tekisligi bo'yicha turli juftlash natijasida avlodlarda rang tekisligining tarqalishi yo'nalishida izlanishlar olib borildi. Ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli juftlashdan olingan avlodlarda rang tekisligi

Juftlash varianti		n	Avlodlarning rang tekisligi , % ($X \pm Sx$)		
♂	♀		A'lo	O'rta	Notekis
Olmos	Olmos	26	65,2±9,34	30,4±9,02	4,4±4,02
	Kumushsimon	21	66,3±10,3	29,6±9,96	4,1±4,33
	Tillasimon	17	59,5±11,9	35,3±11,6	5,2±5,38



Kumushsimon	Olmos	21	74,1±9,56	22,2±9,07	3,7±4,12
	Kumushsimon	18	65,3±11,2	30,1±10,8	4,6±4,94
	Tillasimon	17	64,3±11,6	30,8±11,2	4,9±5,23

Jadval ma'lumotlari avlodlarda rang tekisligi turli rangbarangliklar bo'yicha ma'lum farqlanishlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, a'lo rang tekisligi ifodalanishining yuqori ko'rsatkichi olmos x olmos juftlash variantidan olingan avlodlarda qayd etilgan (65,2±9,34) bo'lsa, o'rta rang tekisligi ifodalanishi bo'yicha olmos x tillasimon juftlash variantidan olingan avlodlar (35,3±11,6) birmuncha yuqori natijalar qayd etgan.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, Buxoro suriga mansub sur qorako'l qo'ylarida irsiy o'tkazuvchanlik yuqori bo'lib, rang va rangbaranglik ko'rsatkichlari bo'yicha asosan olmos rangbarangligiga mansub naslli qo'chqor va sovliqlar yuqori genetik imkoniyatlarga egaligini ko'rish mumkin hamda ushbu holatni seleksiya jarayonida inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Yusupov S.YU. va boshqalar. "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish)" bo'yicha qo'llanma. 2021y.
- 2.Ploxinskiy. N.A. Rukovodstvo po biometrii dlya zootexnikov. Moskva. 1969. 256 s.
- 3.Рахимов А. Р., Беленко А. А., Игамназаров А. Выраженность окраски бухарского сура: Тр. ВНИИК. Т., 1991. С. 51-56.
- 4.Turganbayev R.U. Qoraqalpoq zot tipidagi sur rangli qorako'l qo'ylarining maxsuldorlik xususiyatlari. Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali № 1 2018 y. 25-27 b.

